

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI  
FANLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA  
NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

*Normurodova Nigora Erkin qizi*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining sifati va samaradorligi, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimini tashkil etish va yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlarning berilishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim tafakkurini rivojlantirish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** og'zaki va yozma nutq, ona tili, o'qish savodxonligi, matn, muloqot, so'zlash, tafakkur, to'g'ri va ravon o'qish, metodik qo'llanma, darslik, ijodiy fikrlash.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlaridan o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish faoliyatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.[1]

Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida o'rin ajratilmoqda. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimini tashkil etish o'qitish jarayonining ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bois bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'lim tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining – Ta'lim to'g'rsidagi qonunga muvofiq "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlanib, u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.[2;] Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Dastlab, og'zaki nutqni o'stirish va shu orqali yozuvda shakllantirib boriladi.

Ona tili ta'limi darslari jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish masalasi o'tgan asrning 30-50-yillarida A.Sa'diy, S.Dolimovlar tomonidan; 60-yillardan keyin pedagogika fanlari nomzodi Y.Abdullaev, pedagogika fanlari doktori Q.Abdullaeva, professor K.Qosimova, B.Turdiyev, A.G'ulomov, M.Asqarova, S.Matchonov, SH.Yusupova, T.Ziyodova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

[4;]

A.Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon, adabiy ijodiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilar nutqiy boyligining ahamiyati bo'yicha metodik tavsiyalarni qayd etganlar. Q.Abdullaeva "1-sinfda nutq o'stirish" metodik qo'llanmasida o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni mustaqil tashkil etish, didaktik materiallardan, ko'rgazmalilikdan foydalanish usullari bayon etilgan.[3] Tilning lug'at tarkibi o'quvchining nutqiy rivojlanishi atrofdegilar bilan muloqotga kirishishida katta imkoniyatlar yaratadi. Ona tili o'quv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki inson uchun umri davomida zarur bo'ladigan til birliklarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Boshlang'ich sinf darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan, deyiladi xabarda. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'ldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda

o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan sherni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgani o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.

Xususan, har birimiz yosh bolaning nutqini ya'ni uning tili chiqishidan tortib so'zlarni bir-biriga bog'lashi va gapirish jarayoni qanday holatda kechishini kuzatganmiz. Mana shu til o'zlashtirish jarayoni qaysidur ma'noda juda ham mo'jizaviy holat. Bola tug'iladi, o'ziga notanish bo'lgan nutqni eshitadi va bir yarim, ikki yil vaqt davomida ana shu til tizimini kuzatadi va o'zlashtira boshlaydi. Xulosa qilib aytganda milliy o'quv dasturi asosida tuzilgan darsliklarda lingvistik bilimlarni kontekstda berish bola uchun samaraliroq kechadi. Darslikda berilmagan ma'lumot va qoidalar o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun aynan o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Kontekstda berilgan bola uchun notanish bo'lgan so'zlar va iboralar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi va xulosalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni \ Xalq so'zi. – Toshkent, 2019 yil 30 aprel. № 88 (7318).
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 150-modda
3. Abdullayeva Q. 1-sinfda nutq o'stirish. –T.: O'qituvchi. 1968.
4. Hamdamova M.Z. 1-2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi. ped. f. n. dissertatsiya, -T.: 1998. 160 b.